

устойчивых источников бюджетных доходов. В свою очередь, эффективная и прозрачная налоговая политика формирует доверие общества и стимулирует развитие финансовой культуры.

Следовательно, развитие финансовой грамотности следует рассматривать не только как инструмент повышения личного благосостояния граждан, но и как стратегический фактор укрепления бюджетно-налоговой устойчивости и обеспечения долгосрочного экономического роста государства.

### **Список использованной литературы:**

1. Брызгалин А.В. Финансовая грамотность: экономические и правовые аспекты. – Москва: Юстицинформ, 2021. Электронный журнал. 2022. Том 14. Выпуск 1 (43)-С. 23-31
2. OECD/INFE (2023). *International Survey on Adult Financial Literacy*.
3. Lusardi, A., & Mitchell, O. S. *The Economic Importance of Financial Literacy: Theory and Evidence*. *Journal of Economic Literature*. 2019. Vol. 155,
4. World Bank (2022). *Financial Literacy and Inclusion: Global Trends*.
5. Национальный банк Республики Узбекистан (2023). *Отчет по финансовой грамотности населения*.
6. Т.С.Маликов, Х.А.Қобулов.: *Молиявий Саводхонликни оширишга “яшил чироқ”- давр талаби // “«Молия» илмий журналы”№ 3, июнь 2020 йил – 17-23 б;*
7. Malikov T.S. *Moliyaviy savodxonlik asoslari. O'quv qo'llanma*. – T.: “Iqtisod-Moliya”, 2021. - 33 b.

## **MILLIY IQTISODIYOTNI DIVERSIFIKATSIYALASH SHAROITIDA DAVLAT BUDJETI SOLIQLI DAROMADLARI SAMARALI IJROSINI TA'MINLASH YO'LLARI**

***Ibroimova Laylo Baurjan qizi***

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,  
Soliq va soliqqa tortish yo'nalishi, magistranti*

***Annotatsiya:*** Mazkur tezisdan milliy iqtisodiyotni diversifikatsiyalash sharoitida davlat budjeti solikli daromadlarining samarali ijrosini ta'minlash masalalari yoritilgan. Ishda davlat moliya siyosatining dolzarb yo'nalishlari, solikli tushumlarni shakllantirishda iqtisodiy diversifikatsiyaning o'рни hamda budjet daromadlarining barqarorligini oshirish yo'llari tahlil qilingan. Shuningdek, soliq ma'murchiligini raqamlashtirish va yashirin iqtisodiyotni qisqartirish orqali budjet daromadlarini oshirishning asosiy yo'nalishlari o'rganilgan.

**Kalit so'z:** milliy iqtisodiyot, diversifikatsiya, davlat budjeti, solikli daromadlar, soliq siyosati, soliq risklari, soliq ma'murchiligi, moliyaviy barqarorlik, iqtisodiy o'sish.

Bugungi kunda milliy iqtisodiyotni diversifikatsiyalash davlatning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishda va budjet daromadlarini kengaytirishda muhim omilga aylanmoqda. Iqtisodiyotimizning turli tarmoqlarini rivojlantirish, ularni yangi texnologiyalar asosida modernizatsiya qilish, xususi sektor faolligini oshirish orqali solikli daromadlar bazasini kengaytirish imkoniyati yaratiladi.

Davlat budjeti mamlakat iqtisodiy siyosatining asosi bo'lib, uning solikli daromadlari milliy iqtisodiyotdagi barqarorlik va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining kafolatidir. Shu bois, solikli daromadlarni samarali boshqarish, soliq siyosatini takomillashtirish va ularning ijrosini to'liq ta'minlash hozirgi davrda alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida ham iqtisodiyot tarmoqlarini diversifikatsiyalash, soliqqa tortish tizimini soddalashtirish va budjet daromadlari barqarorligini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilab berilgan.<sup>161</sup>

Hozirgi globallashtirish va iqtisodiy islohotlar jarayonida milliy iqtisodiyotning barqarorligini ta'minlashda davlat budjeti daromadlarining samarali ijrosi muhim o'rin tutadi. Davlat budjeti mamlakat moliyaviy tizimining asosi bo'lib, u iqtisodiyotdagi ishlab chiqarish jarayonlari, ijtimoiy sohalar va infratuzilma rivojlanishini moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlaydi. Shu sababli, solikli daromadlarning barqaror shakllanishi davlat moliyaviy siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotni diversifikatsiyalash siyosati davlat daromadlar bazasini kengaytirish, yangi tarmoqlarni rivojlantirish hamda byudjetga tushumlarni barqaror oshirish uchun qulay shart-sharoit yaratmoqda. Diversifikatsiya nafaqat ishlab chiqarish tarmoqlarini kengaytirish, balki soliqqa tortish bazasini ham kengaytiradi, chunki yangi sohalarning paydo bo'lishi bilan birga solikli daromad manbalari ko'payadi.

Iqtisodchi olim Q. Abdullayev o'z tadqiqotlarida "Iqtisodiyotni diversifikatsiyalash orqali budjet daromadlarini barqarorlashtirish fiskal siyosatning eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, u iqtisodiy inqirozlar ta'sirini kamaytiradi va davlat moliya tizimining mustahkamligini oshiradi"<sup>162</sup> deb ta'kidlaydi. Bu yondashuv soliq siyosatining samaradorligini oshirishga, soliqqa tortish bazasini kengaytirishga xizmat qiladi.


---

<sup>161</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni, 2022-yil 28-yanvar.

<sup>162</sup> Abdullayev Q. "Davlat moliyasi va budjet siyosatining samaradorligini oshirish yo'llari". — T.: Iqtisodiyot nashriyoti, 2022.

Bundan tashqari, M. Xakimov va B. Qo'ziyev o'z ilmiy ishlarida "Davlat budjeti daromadlarining asosiy manbai bo'lgan solikli tushumlarning o'sishi nafaqat soliq stavkalariga, balki iqtisodiyotda ishlab chiqarish hajmining kengayishiga, bandlik darajasiga va yashirin iqtisodiyot ulushining kamayishiga ham bog'liqdir"<sup>163</sup> degan fikrlarni ilgari surgan. Demak, iqtisodiy faollikni qo'llab-quvvatlash soliq tushumlarining o'sishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Umuman olganda solikli daromadlarmi, 2020–2024 yillardagi foyda solig'i tushumlari tahlili misolida milliy iqtisodiyotni diversifikatsiyalash davlat budjeti solikli daromadlarining samarali ijrosini ta'minlashda muhim omil ekanini ko'rib o'tishimiz mumkin. Tarmoqlar balansining kengayishi, ishlab chiqarishning modernizatsiyasi va soliq ma'murchiligining takomillashuvi natijasida budjet daromadlari barqaror, izchil va xavfsiz shakllanib bormoqda.



**1-rasm. Foyda solig'i tushumi dinamikasi (2020-2024-yillar)<sup>164</sup>.**

1-rasm 2020–2024 yillar davomida foyda solig'i tushumlarining o'sish dinamikasi milliy iqtisodiyotni diversifikatsiyalash jarayonlarining davlat budjeti daromadlariga bevosita ta'sirini yaqqol namoyon etadi. Mazkur davr ichida foyda solig'i 3 050 mlrd so'mdan 5 270 mlrd so'mga yetib, izchil o'sish tendensiyasini ko'rsatdi. Bu o'sish, bir tomondan, iqtisodiyot tarmoqlarining kengayishi va yangicha faol sohalarning vujudga kelishi bilan, ikkinchi tomondan esa, soliq ma'murchiligining samaradorligi oshgani bilan izohlanadi.

Diversifikatsiya sharoitida ishlab chiqarishning ko'p tarmoqli bo'lishi, xizmat ko'rsatish sohasi ulushining ortishi va yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishning kengayishi budjetga tushadigan foyda solig'i hajmini barqaror oshirib boradi. Ayniqsa, 2020-yilda o'sishning 174,2 foizni tashkil etgani iqtisodiy tiklanish, yangi ishlab chiqarish yo'nalishlarining ishga tushirilishi va soliq bazasining kengayganidan dalolat beradi. 2022–2024 yillarda ham o'sish sur'atlarining yuqori bo'lishi diversifikatsiya jarayonlarining davlat daromadlariga ijobiy ta'siri davom etayotganini ko'rsatadi. 2023-yilda o'sishning 98,5 foizgacha sekinlashgani iqtisodiy siklning tabiiy pasayishi yoki ayrim tarmoqlarda vaqtinchalik faollikning susayishi bilan bog'liq bo'lsa-da, 2024-yilda

<sup>163</sup> Xakimov M., Qo'ziyev B. "Soliq tizimini takomillashtirish nazariyasi va amaliyoti". — T.: Iqtisod-moliya, 2022.

<sup>164</sup> O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

ko'rsatkichning 129,1 foizga qayta ko'tarilishi diversifikatsiyalash jarayonlarining davlat daromadlari barqarorligini tiklashga xizmat qilganini anglatadi. Bu shuni ko'rsatadiki, iqtisodiyotning ko'p tarmoqli bo'lishi soliq tushumlarining keskin pasayib ketish xavfini kamaytiradi va budjet ijrosining barqarorligini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 28-noyabrdagi PQ-364-son qarori "Soliqlarning yig'iluvchanlik darajasini oshirish va faol soliq to'lovchilarni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror soliq tizimining samaradorligini oshirishning yangi mexanizmlarini belgilaydi va aholining hamda mahalliy iqtisodiyot sub'ektlarining soliqlar bo'yicha faol ishtirokini rag'batlantirishni maqsad qilgan.<sup>165</sup> Qaror doirasida mahallalar darajasida soliq to'lovchilarning faoliyatini baholash va rag'batlantirish bo'yicha mezonlar ishlab chiqildi. Xususan, soliq tushumlari miqdori, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i to'lovchilari soni, kichik biznes sub'ektlari soni va ular tomonidan to'langan soliqlar miqdori kabi ko'rsatkichlar asosida mahallalar reytingi shakllantiriladi.

PQ-364 son "Soliqlarning yig'iluvchanlik darajasini oshirish va faol soliq to'lovchilarni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori faol soliq to'lovchilarni rag'batlantirish, mahalliy byudjet daromadlarini oshirish va soliq intizomini kuchaytirish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni belgilaydi. Shuningdek, qaror avtomatlashtirilgan tizimlar orqali soliq monitoringini takomillashtirish va soliq bazasining oshkoraligini ta'minlashga xizmat qiladi. Mahallalar darajasida soliq to'lovchilar faoliyati baholanishi va rag'batlantirilishi, ularni soliqlarni qonuniy to'lashga jalb qilish mexanizmi sifatida ishlaydi. Natijada, qaror solikli daromadlarni oshirish va soliq tizimini samarali boshqarish uchun amaliy normativ asos yaratadi.

Ushbu tezis milliy iqtisodiyotni diversifikatsiyalash sharoitida davlat budjeti solikli daromadlarining samarali ijrosini ta'minlash masalasini tahlil qildi. Milliy iqtisodiyotni diversifikatsiyalash, soliq ma'murchiligini raqamlashtirish va yashirin iqtisodiyotni qisqartirish - davlat budjeti daromadlarining barqaror va samarali ijrosini ta'minlovchi strategik yo'nalishlar hisoblanadi. Ushbu yo'nalishlarni amalga oshirish ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi, iqtisodiy inqirozlar ta'sirini kamaytiradi va davlat moliya tizimining mustahkamligini oshiradi.

### ***Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:***

1. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni, 2022-yil 28-yanvar.*

2. *Abdullayev Q. "Davlat moliyasi va budjet siyosatining samaradorligini oshirish yo'llari". — T.: Iqtisodiyot nashriyoti, 2022.*

---

<sup>165</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezident qarori PQ-364 "Soliqlarning yig'iluvchanlik darajasini oshirish va faol soliq to'lovchilarni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 28.11.2025. <https://lex.uz/uz/docs/7866326>

3. *Xakimov M., Qo'ziyev B. "Soliq tizimini takomillashtirish nazariyasi va amaliyoti". — T.: Iqtisod-moliya, 2022.*

4. *O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.*

5. *O'zbekiston Respublikasi Prezident qarori PQ-364 "Soliqlarning yig'iluvchanlik darajasini oshirish va faol soliq to'lovchilarni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 28.11.2025. <https://lex.uz/uz/docs/7866326>*

## **MOLIYAVIY SAVODXONLIKNI OSHIRISHDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING ROLI**

***P. Xalekeyeva Phd. Dotsenti,  
Z.N.Asatillayeva***

*TDIU, "Moliya va moliyaviy texnologiyalar" fakulteti talabasi*

Moliyaviy savodxonlik nafaqat jamiyatning iqtisodiy barqarorligi uchun balki aholi shaxsiy farovonligini ta'minlashda ham muhim ahamiyat kasb etayotgan bugungi kunda aholining moliyaviy bilim darajasi yetarli bo'lmagani ortiqcha qarzdorlik, noto'g'ri investitsiya qarorlari, moliyaviy firibgarliklar va ularning qurbonlarining ko'payishiga olib kelmoqda. Shu bois moliyaviy bilimlarni keng ommaga yetkazish, ularni ongli qarorlar qabul qilishga o'rgatish dolzarb vazifa hisoblanadi<sup>166</sup>.

Ushbu tezisdan moliyaviy savodxonlikni oshirishda ommaviy axborot vositalarining roli tahlil qilinadi. Aholining moliyaviy bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishda translyatsiya platformalari, radio, bosma nashrlar hamda raqamli platformalarning samarali ishlatilishi o'rganiladi. Shuningdek, OAV orqali moliyaviy madaniyatni shakllantirish, moliyaviy firibgarliklarning oldini olish va aholining ongli moliyaviy qarorlar qabul qilishiga erishish masalalari yoritiladi.

Hozirgi raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaviy savodxonlik jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Aholining moliyaviy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi nafaqat shaxsiy farovonlikni, balki mamlakat iqtisodiy barqarorligini ham ta'minlaydi. Moliyaviy savodxonlik darajasi past bo'lgan jamiyatda noto'g'ri kredit siyosati, ortiqcha qarzdorlik, noqonuniy moliyaviy sxemalarga aldanish va moliyaviy risklarning ortishi kuzatiladi.

Shu sababli moliyaviy savodxonlikni oshirishda samarali vositalardan foydalanish dolzarb vazifa hisoblanadi. Ommaviy axborot vositalari aholiga tezkor va keng qamrovli axborot yetkazish imkoniyatiga ega bo'lgan muhim ijtimoiy institut sifatida moliyaviy bilimlarni targ'ib qilishda alohida ahamiyat kasb etadi. Ular orqali murakkab moliyaviy tushunchalarni oddiy va tushunarli

---

<sup>166</sup> O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. Moliyaviy savodxonlikni oshirish bo'yicha yillik hisoboti - Toshkent, 2023